

F. M. Zakirova, M. R. Zakirova,
M. R. Fayziyeva, N. S. Xaytullayeva

Informatika va axborot texnologiyalari

1-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik
Qayta ishlangan 2-nashr

Ta'limni rivojlantirish markazi huzuridagi
Ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan



Toshkent – 2024

UO'K: 004(075.3)

KBK 32.81ya72

I 74

Zakirova F.M.

Informatika va axborot texnologiyalari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik / F.M.Zakirova, M.R.Zakirova, M.R. Fayziyeva, N.S.Xaytullayeva. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2024. – 80 b.

Taqrizchilar:

- N. M. Usmanova –** MMTV tasarrufidagi PMTIDUMning oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
- O. Sh. Yevstafiyeva –** MMTV tasarrufidagi PMTIDUMning 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar



**Qalam bilan
ishlang**



**Og'zaki
topshiriq**



**Mantiqiy
topshiriq**



Bu qiziq!



Dars yakuni

ISBN 978-9943-7209-2-3

© F.M.Zakirova va b.

© "Novda Edutainment", 2024

Kitobni asrang!

Kitob – insonning eng yaqin yordamchisi. Kompyuter va gadjetlar ishdan chiqishi mumkin, ammo kitob doim biz bilan birga bo'ladi. Kitob bizning do'stimiz va ustozimiz hisoblanadi. Kitoblarni yaratish uchun ko'plab insonlar mehnat qiladilar. Biz ajdodlarimizning dono o'gitlarini kitoblar orqali o'rganamiz. Ular hayotda to'g'ri yo'lni tanlashimizda bizga yordam beradi. Agar kitobni asrab-avaylasak, u ko'plab insonlarga uzoq yillar xizmat qiladi.

Kitob bizni bilim va quvonchlar bilan limmo-lim o'zga bir tasavvurlar olamiga yetaklaydi. Vaqti kelganda, u bizni Yer yuzidagi kichik hujayralardan tortib, okean hamda koinotda kechadigan turli voqea-hodisalar va ularning sirlaridan voqif qiladi.

Kitob bizni o'ylashga, fikr yuritishga va to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatadi.



Salom, aziz bolajonlar!

Sizni ushbu ajoyib va qiziqarli darslikni o'rganishga taklif etamiz! Bu darslik yosh, biroq juda zarur fan – Informatika va axborot texnologiyalari faniga bag'ishlangan. Siz darslikdagi bir mavzudan boshqasiga o'tish bilan axborot olish, undan to'g'ri foydalanish haqida ko'plab yangi va qiziqarli bilimlarga ega bo'lasiz. Shuningdek, o'qishda va hayotda sizga yordam beruvchi foydali amaliy usullarni bilib olasiz.

Qiziquvchan, ziyrak va ijodkor bo'ling!

Sizga omad tilaymiz!

I bob
Biz olamni qanday
qabul qilamiz?



Bizning sezgi a'zalarimiz



1. Rasmga qarang.

- Bola nima qilyapti?
- U qanday tovush chiqaryapti?
- Nima uchun otasi norozi qarab o'tiribdi?
- Nima uchun qizcha boshini burib, dasturxon tomon qaradi?
- U nimaning hidini sezdi?





2. Siz nimani ko'rishingiz, hidlashingiz, mazasini bilishingiz, ushlab his qilishingiz mumkin?



3. Qaysi sezgi a'zolari orqali televizor va telefonning ishlayotganini bilishingiz mumkin?



4. Maqolning ma'nosini tushuntirib bering.

**Ko'z qo'rqqoq,
Qo'l botir.**



Biz nimalarni ko'ramiz?



Ko'z – ko'rish
a'zosi.



1. Rasmga qarang.

- Qaysi bola ma'lumotlarni ko'zi orqali qabul qilmoqda?
- Qaysi bola ma'lumotlarni **faqat** ko'zi orqali qabul qilmoqda?



Akmal



Jasur



2. Rasmdagi bolalar ma'lumotlarni qaysi sezgi a'zosi orqali qabul qilmoqda?



3. Rasmga qarang. Azizaning kayfiyati qanday?



4. Topishmoqning javobini toping.


Ikki og'a-ini bir-birini ko'rmaydi.




Rang va shakl



1. Har bir chizmaning rangi va shaklini ayting.



2. Uycha, daraxt va quyosh qanday qismlardan iborat ekanini ko'rib chiqing. Har bir qismning alomatlarini: rangi, shakli va o'lchamini ayting.






3. Rasmlarga qarang. Rangi bir xil predmetlarni belgilang.



4. Har bir qatorda nima ortiqcha ekanini o'ylab ko'ring va toping.



5. Topishmoqning javobini toping.

Qishin-yozin bir xil libosda.



Biz nimalarni eshitamiz?



**Quloq –
eshitish a'zosi.**



1. Savollarga javob bering.

- Asalarilar, kuchuk va jo'ja qanday tovush chiqaradi?
- Qaysi birining tovushi eng past?
- Qaysi birining tovushi eng baland?





2. Diqqat bilan qarang. Kim ma'lumotlarni faqat quloqlari orqali qabul qilmoqda?



Akmal



Jasur



3. O'ylab ko'ring, qaysi predmet ortiqcha?




4. Maqolning ma'nosini tushuntiring.

Yuz marta eshitgandan,
bir marta ko'rgan yaxshi.



Hidlar qanday bo'ladi?



**Burun – hid
bilish a'zosi.**



1. Savollarga javob bering.

- Qaysi hidlar yoqimli?
- Qaysi hidlar yoqimsiz?
- Burun orqali qanday ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin?





2. Aziza qanday hidni sezayotganini o'ylab ko'ring va xulosa chiqaring.



3. Rasmlarga qarang. Ulardan qaysi biri ortiqcha?



4. Iboraning ma'nosini tushuntiring.

Qattiq sovuqda burningizni asrang.

